



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 416 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
Omonova Maftuna Shermatovna	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
Sevara Alimurodova, Ayubova Saïda	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
Poyonova Fazilat Olimovna	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
<i>Gulmonova Guli Anvar qizi</i>	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
<i>Yuldashev Xusniddin Abdullayevich</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
<i>Bozorova Muxlisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
<i>Alimov Azim Anvarovich</i>	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
<i>Burtshova Aliya Burxonovna</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
<i>Nazarova Vazira Bahron qizi</i>	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
<i>Shodmonova Munisa Furkatovna</i>	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
<i>Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna</i>	
Jamoat transporti haydovchilarining psixoemotsional barqarorligini shakllantirishning nazariy-psixologik asoslari.....	369
<i>Ruzimatova Gulbaxor Adiljanovna</i>	
Игровые технологии как средство развития речевой активности детей с тяжёлыми нарушениями речи	375
<i>Шакирова Ситора Абдугануровна</i>	
Qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchi talabalarda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari.....	380
<i>Jo'rayev Nodirbek Nutfillo o'g'li</i>	
Ценностно-смысловой потенциал поэзии Анны Ахматовой в формировании языковой личности и духовно-нравственном становлении учащихся: методический аспект	385
<i>Жабборова Гулчехра Жобириновна</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida geoaxborot tizimlarini o'qitishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari...	391
<i>Iskandarov Bayimbet Sobir o'g'li</i>	
O'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish yo'nalishlari	395
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish	399
<i>Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi</i>	
O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	404
<i>Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda kognitiv strategiyalardan foydalanish metodikasi	409
<i>Sharopova Zarnigor Tolib qizi</i>	



ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi

Buxoro davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darslari jarayonida hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish masalasi yoritilgan. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, qaror qabul qilish, axborot bilan ishlash va hamkorlikda faoliyat yuritish kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda amaliy mazmundagi topshiriqlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili, o'qish savodxonligi, hayotiy ko'nikmalar, funksional savodxonlik, topshiriqlar tizimi, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat, mustaqil faoliyat.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations for improving a system of tasks aimed at developing primary school students' life skills in mother tongue and reading literacy lessons. The study highlights the pedagogical potential of practice-oriented and competency-based tasks in developing such life skills as communicative competence, critical and independent thinking, problem-solving, decision-making, effective information processing, and collaboration.

Key words: primary education, mother tongue, reading literacy, life skills, functional literacy, task system, competency-based approach, communicative competence, critical thinking, problem-based learning.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и методические основы совершенствования системы заданий, направленных на развитие жизненных навыков младших школьников на уроках родного языка и читательской грамотности. В исследовании раскрываются педагогические возможности практико-ориентированных и компетентностных заданий в формировании таких жизненных навыков, как коммуникативная компетентность, критическое и самостоятельное мышление, решение проблемных ситуаций, принятие решений, эффективная работа с информацией, а также сотрудничество.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, читательская грамотность, жизненные навыки, функциональная грамотность, система заданий, компетентностный подход, коммуникативная компетентность, критическое мышление, проблемное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni egalashi, balki ularni kundalik hayotda qo'llay olishiga imkon beradigan amaliy kompetensiyalarni shakllantirishni ham taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchini mustaqil fikrlaydigan, o'z nuqtayi nazarini asoslay oladigan, muloqotga kirisha oladigan, muammoli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qiladigan hamda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini, axborot bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim samarador-

ligining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunda ona tili va o'qish savodxonligi fanlari o'zining mazmun-mohiyati va metodik imkoniyatlari bilan o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar matnni o'qish, mazmunini anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ifodalash, savollarga javob berish hamda muayyan vaziyatga munosabat bildirish kabi faoliyatlarni amalga oshiradilar. Mazkur faoliyatlarni real hayotiy vaziyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal etish, o'z-o'zini boshqarish hamda mustaqil qaror qabul qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni samarali rivojlantirish mumkin.

Biroq amaliyotda dars jarayonida qo'llanilayotgan topshiriqlarning barchasi ham o'quvchini real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, mustaqil fikrlashga undash va egallangan bilimlarni amaliy faoliyatga ko'chirish imkonini beradigan darajada shakllantirilmagan. Shu jihatdan, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan topshiriqlarni mazmuniy va metodik jihatdan qayta ko'rib chiqish, ularni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, kundalik hayotiy tajribasi hamda zamonaviy kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, hayotiy vaziyatlarga asoslangan, muammoli, amaliy, ijodiy, kommunikativ va refleksiv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish o'quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga, muloqotga kirishishga, muammoli vaziyatlarni hal etishga va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashga tayyorlash masalalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur muammo kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, funksional savodxonlik va faoliyatga asoslangan ta'lim konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilmoqda. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim metodikasini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ona tili va o'qish ta'limining o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi imkoniyatlari keng yoritilgan. Jumladan, Q. Abdullayeva, M. Asqarova, K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev kabi olimlarning tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish, o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, matn ustida ishlash, mustaqil fikrlash va ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlashning metodik asoslari tadqiq etilgan. Ushbu ilmiy-metodik qarashlar ona tili va o'qish savodxonligi darslarini o'quvchining amaliy faoliyati bilan bog'lash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining mazmuni hamda o'quv topshiriqlarining o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasida, avvalo, tizimli yondashuv asosida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan topshiriqlarning mazmuni, maqsadi, shakli va o'quvchi faoliyatiga ta'siri o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Topshiriqlar hisobi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, mavjud bilim darajasi hamda kundalik hayotiy tajribasini hisobga olgan holda shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ta'lim mazmunini zamonaviylashtirishni, o'quv topshiriqlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil etishni va o'quv faoliyatini real hayotiy vaziyatlar bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslari mazmunan o'quvchilarning kundalik hayoti, muloqoti, kuzatishlari, tajribasi va ijtimoiy munosabatlari bilan bevosita bog'lanishi mumkinligi sababli hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Tadqiqot doirasida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan topshiriqlar mazmuni tahlil qilinib, ularni hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan takomillashtirishning metodik imkoniyatlari aniqlandi. Tahlil jarayonida topshiriqlarning mazmuni, o'quvchi faoliyatining turi, mustaqillik darajasi, hayotiy vaziyat bilan bog'liqligi, kommunikativ yo'nalganligi, muammolilik darajasi hamda refleksiv imkoniyatlari asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun topshiriq faqat bilimni tekshirish vositasi emas, balki o'quvchini faol fikrlashga, muloqotga kirishishga, mustaqil qaror qabul qilishga va amaliy harakatga undovchi pedagogik vosita bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy topshiriqlarning asosiy qismi o'quvchidan matnni o'qish, savollarga javob berish, so'z yoki gaplarni ko'chirish, grammatik birliklarni aniqlash, mazmunni qayta hikoya qilish kabi faoliyatlarni bajarishni talab qiladi. Biroq ularning real hayot bilan bog'liqligi har doim ham yetarli darajada namoyon bo'lavermaydi. Bunday topshiriqlar o'quvchining dastlabki bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, hayotiy ko'nikmalarni kompleks rivojlantirish uchun yetarli emas. Chunki hayotiy vaziyatlarda inson faqat ma'lum bir bilimni eslab qolish bilan cheklanmaydi. U vaziyatni tushunishi,



muammoni aniqlashi, mavjud axborotni tahlil qilishi, bir nechta yechimlarni taqqoslashi, qaror qabul qilishi va o'z qarorini asoslay olishi kerak. Shu sababli topshiriqlarni quyidagi olti asosiy yo'nalishga ajratish maqsadga muvofiq:



1-rasm: Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi

Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarda bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish, muammoli vaziyatlarni anglash va tahlil qilish, mustaqil fikrlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, maqbul qaror qabul qilish, o'z qarorini asoslash, samarali muloqotga kirishish, hamkorlikda faoliyat yuritish hamda o'z-o'zini baholash kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlarning muhim jihati shundaki, o'quvchi o'zlashtirilgan bilimlarni sun'iy o'quv vaziyatlaridagina emas, balki kundalik hayotga yaqin sharoitlarda ham qo'llaydi. Natijada unda "bilim – qo'llash – tahlil – qaror – natija – refleksiya" izchilligi shakllanadi.

Muammoli topshiriqlar o'quvchini tayyor javobni topishga emas, balki muammoni anglashga, mavjud bilimlarini qo'llashga, vaziyatni tahlil qilishga, taxminlar ilgari surishga, turli yechimlarni izlashga va asoslangan xulosaga kelishga undaydigan topshiriqlardir. Boshlang'ich ta'limda bunday topshiriqlar o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki bola topshiriqni bajarish jarayonida bilimlarini amaliy vaziyatga tatbiq etadi, mustaqil qaror qabul qiladi va o'z fikrini asoslashga o'rganadi. Masalan, 3-sinf ona tili darsligidagi quyidagi mashqni misol sifatida keltirish mumkin:



9-mashq. Avval shaxs-narsani, keyin belgini, so'ngra sanoqni va undan keyin harakatni bildirgan so'zlarni yozing. Ularga so'roq bering.

SHAXMAT so'ziga sinkveyn tuzing.

1. Nima? –
2. Qanday? –
3. Nima qiladi? –
4. Gap.
5. Ma'nodosh so'z.

Shaxmat – san'at, falsafa, mantiq, hisob ilmlarini o'zida jamlagan sport turi. U intellektual o'yinlar ichida eng mukammali va murakkabi hisoblanadi.

Xabaringiz bor, avgust oyida Hindistonning Chennay shahrida o'tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida terma jamoamiz Olimpiada chempioni degan sharaflar nomga sazovor bo'ldilar.



2-rasm: Kommunikativ topshiriqlar

Kommunikativ topshiriqlar – o'quvchilarning o'z fikri, qarashlari va munosabatlarini og'zaki yoki yozma shaklda aniq, izchil hamda tushunarli ifodalashiga, suhbatdoshini tinglashiga, savol berishi va savollarga javob qaytarishiga, muloqot jarayonida o'z fikrini asoslashiga yo'naltirilgan topshiriqlardir. Bunday topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ topshiriqlarning asosiy



xususiyati shundan iboratki, bunda o'quvchi faqat til hodisasini aniqlash yoki qoidani yoddan aytish bilan cheklanmaydi. U o'zlashtirgan til birliklaridan real yoki shartli muloqot vaziyatlarida foydalanadi. Natijada o'quvchida fikrni mustaqil shakllantirish, suhbatga kirishish, o'z nuqtayi nazarini bildirish, boshqalarning fikrini tinglash va unga munosabat bildirish ko'nikmalari tarkib topadi. 3-sinf "Ona tili" darsligining 211-mashqida o'quvchilarga rasmlarni ko'rish, savollarga javob berish, rasmda tasvirlangan shaxs va narsalarning nomlarini yozish, yozilgan so'zlarni lug'atdan tekshirish hamda ushbu otlarni qatnashtirib og'zaki gaplar tuzish topshirig'i berilgan.

211-mashqning metodik ahamiyati shundaki, u o'quvchini "so'zni bilish"dan "so'zni muloqotda qo'llash"ga olib boradi. O'quvchi rasmini kuzatadi, kerakli so'zlarni tanlaydi, ularning ma'nosini aniqlaydi va ushbu so'zlardan foydalanib mustaqil gaplar tuzadi. Shu tariqa lug'aviy bilim grammatik hamda nutqiy faoliyat bilan integratsiyalashadi. Mazkur topshiriq o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

- o'z fikrini og'zaki ifodalash;
- savollarga mazmunli javob berish;
- savol berish;
- suhbatdoshini tinglash;
- so'zlarni vaziyatga mos tanlash;
- gaplarni mantiqiy va izchil tuzish;
- o'z fikrini boshqalarga tushunarli yetkazish;
- lug'atdan mustaqil foydalanish.

Ijodiy topshiriqlar – o'quvchilarning mavjud bilim va ko'nikmalaridan yangi vaziyatlarda foydalanishi, mustaqil fikr yuritishi, o'ziga xos g'oya va yechimlarni ishlab chiqishi, tasavvuri hamda fantaziyasini namoyon etishiga yo'naltirilgan topshiriqlardir. Bunday topshiriqlarda, odatda, yagona va oldindan belgilangan javob mavjud bo'lmaydi. O'quvchi muammoga o'z nuqtayi nazaridan yondashadi va javobini mustaqil ravishda shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'limda ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammoni noodatiy usulda hal qilishi, o'z fikrini erkin ifodalashi, tasavvur qilishi va tashabbus ko'rsatishi kabi hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijodiy topshiriqlarning muhim xususiyati shundaki, ular o'quvchidan tayyor bilimni takrorlashni emas, balki yangi mahsulot, fikr, matn, yechim yoki g'oya yaratishni talab qiladi. Shu sababli bunday topshiriqlar o'quvchilarning faol va mustaqil subyekt sifatidagi rolini kuchaytiradi.

1-jadval: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar tizimi

Hikoya yaratish	Berilgan rasm, so'z yoki vaziyat asosida mustaqil hikoya tuzish	"Rasm asosida 6–7 gapdan iborat hikoya tuzing."
Matnni davom ettirish	Boshlangan hikoya yoki voqeani o'quvchi o'z tasavvuriga ko'ra davom ettiradi	"Bir kuni maktabga kelayotganimda, yo'lda g'alati bir qutini ko'rib qoldim..." Hikoyani davom ettiring.
Muqobil yakun yaratish	Matn yoki ertak voqealariga boshqa yakun o'ylab topish	"Agar ertak qahramoni boshqacha qaror qilganida, voqealar qanday yakunlangan bo'lardi?"
Rasm asosida ijod qilish	Rasm mazmunini mustaqil talqin qilish va unga mos matn yaratish	"Rasmga qarab hikoya tuzing va unga sarlavha qo'ying."
Rolga kirish	O'quvchi muayyan obraz yoki vaziyatga kirib, uning nomidan fikr bildiradi	"Siz ertakdagi qahramon o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?"
Reklama yaratish	Berilgan predmet yoki mahsulotni boshqalarga tanishtirish uchun ijodiy matn tuzish	"Sevimli kitobingiz uchun reklama matnini yarating."
Sarlavha yaratish	Matn mazmunidan kelib chiqib, unga mos va original sarlavha topish	"Matnni o'qing va unga 3 xil sarlavha taklif qiling."
She'r yoki maqol yaratish	Berilgan mavzu asosida ijodiy nutq mahsulini yaratish	"Do'stlik haqida 4 misralik she'r tuzing."
Yangi yechim yaratish	Muammoga odatiy bo'lmagan yechim taklif qilish	"Maktabda qog'oz chiqindilarini kamaytirish uchun qanday yangi usul taklif qilasiz?"

Axborot bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar – o'quvchilarning turli manbalardan axborotni izlash, topish, o'qish, tushunish, saralash, taqqoslash, tahlil qilish, qayta ishlash, baholash hamda undan amaliy



faoliyatda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlardir. Boshlang'ich ta'limda bunday topshiriqlar o'quvchilarning axborot savodxonligini rivojlantirish bilan birga, mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va hayotiy vaziyatlarda zarur ma'lumotlardan foydalanish kompetensiyalarini ham tarkib toptiradi. Axborot bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlarning asosiy xususiyati shundaki, o'quvchi berilgan ma'lumotni shunchaki o'qib yoki yodlab qolmaydi, balki undan zarur axborotni ajratib oladi, ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi va olingan axborot asosida xulosa chiqaradi.

Refleksiv topshiriqlar – o'quvchilarning o'z faoliyati, egallagan bilimlari, bajargan ishlaridagi yutuq va kamchiliklarini anglash, o'z harakatlarini tahlil qilish, baholash hamda keyingi faoliyatini rejalashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlardir. Bunday topshiriqlarda o'quvchi "Men nimani bildim?", "Nimani bajara oldim?", "Qayerda qiynaldim?", "Xatoyim nimada bo'ldi?" kabi savollar orqali o'z faoliyatiga nazar tashlaydi.

Boshlang'ich ta'limda refleksiv topshiriqlarning ahamiyati shundaki, ular o'quvchini o'z ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. O'quvchi faqat o'qituvchi tomonidan berilgan bahoni kutib qolmay, o'z ishini mustaqil tahlil qilish va baholashga o'rganadi. Bu esa hayotiy kompetensiyalarning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan o'zini anglash, o'z faoliyatini boshqarish, mas'uliyat, mustaqillik va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA

Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar mazmuniga ko'ra muammoli, kommunikativ, ijodiy, axborot bilan ishlashga yo'naltirilgan hamda refleksiv topshiriqlar kabi guruhlariga ajratilishi mumkin. Ularning har biri o'quvchilarning muayyan kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, muammoli topshiriqlar mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni, kommunikativ topshiriqlar muloqot qilish va fikrni aniq ifodalashni, ijodiy topshiriqlar kreativ fikrlashni, axborot bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar axborotni izlash, saralash va tahlil qilishni, refleksiv topshiriqlar esa o'z faoliyatini anglash va baholashni rivojlantiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, topshiriqlarni faqat reproduktiv xarakterda, ya'ni tayyor bilimlarni eslab qolish va qayta ifodalashga yo'naltirish o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini to'liq shakllantirish imkonini bermaydi. Shu sababli darsliklarda va o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan topshiriqlarda real hayotiy vaziyatlar, ochiq savollar, muammoli holatlar, tanlov va qaror qabul qilish vaziyatlari, hamkorlikdagi faoliyat hamda refleksiya elementlaridan keng foydalanish zarur.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi: Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklaridagi topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, bunda o'quvchilarning bilimlarini real hayotda qo'llashga imkon beruvchi topshiriqlar ulushini oshirish. Muammoli, kommunikativ, ijodiy, axborot bilan ishlashga yo'naltirilgan va refleksiv topshiriqlarning o'zaro integratsiyalashgan tizimini ishlab chiqish hamda ularni darsning turli bosqichlarida muntazam qo'llash. Topshiriqlar mazmuniga kundalik hayotiy vaziyatlarni keng kiritish, jumladan, oilaviy munosabatlar, do'stlik, maktab hayoti, tabiatni asrash, xarid qilish, vaqtni rejalashtirish, xavfsizlik va jamoat joylarida o'zini tutish bilan bog'liq vaziyatlardan foydalanish. O'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bir nechta yechimga ega bo'lgan ochiq turdagi topshiriqlar sonini ko'paytirish. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida dialog, munozara, rolli o'yin, intervyu, savol-javob va guruhli muhokama kabi faoliyat turlaridan foydalanishni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova M. Boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2023.
2. Rasulova G. O'qish savodxonligi darslarida interfaol metodlar. – Samarqand, 2021.
3. Turg'unova Z. Boshlang'ich ta'limda matn bilan ishlash samaradorligi. – Buxoro, 2020.
4. Hasanov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Fan", 2022.
5. OECD PISA Framework for Reading Literacy. – OECD, 2021.
6. Xodjajev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: darslik. – Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. – 416 b.
7. Bahodirovna B.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish // Scientific Impulse. – 2022. – № 1(5). – B. 660–664.
8. Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi. The Methodology of Working on Teachers' Speech in Primary Class Mother Language and Reading Literacy Lessons // Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Vol. 2, No. 5. – P. 654–657.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.